




SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2025- YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 76-225-65-76
www.surxonstat.uz**


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 645,2 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.



2025-yilning yanvar oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Denov tumani (11,4 %), Qumqo'rg'on tumani (10,4 %), Jarqo'rg'on tumani (9,8 %), hamda Termiz shahri (7,0 %), hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Angor tumanida (35,1 %), Sherobod tumanida (113,8 %) hamda Bandixon (112,5 %) tumanlarida kuzatildi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,3 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,9 % ga toʻgʻri keldi.



*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



Yanvar oylarida yirik korxonalar bo'yicha (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	25,0	37,2	12,2
Neft, ming t.	6,5	5,6	- 0,9
Qattiq tuz, ming t.	1,7	1,8	0,1
Chaqiq tosh, ming t.	3,8	0,0	-3,8

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat


Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 645,2 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.




*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

92,0 %




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024-y.ning yanvar oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,3 % (3,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,6 % (26,6 %), quyi texnologiyali 74,4 % (62,3 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,0 % (2024-y.ning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 18,6 % (2024-y.ning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushi – 10,5 % (2024-y.ning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,3 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish ulushi – 14,5 % (2024-y.ning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi–3,0% (2024-y.ning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,5 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar oylarida viloyatda 97,1 ming l 100% l spirt aroq (2024-y.ning yanvar oylariga nisbatan 10,5 % ga kamaygan), 110,8 ming l uzum vinosi (16,7 % kamaygan), paxta tolasi 25,0 ming. t (59,7 % ga ko'paygan) hamda 37,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (33,5 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Aroq, ming l 100%li spirt	10,6	-	-10,6
Uzum vinosi ,ming l	22,7	-	- 22,7
Paxta tiviti, tonna	294	343	51
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	3,0	5,6	2,5
Paxta tolasi, ming t.	2,1	2,9	0,8

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 171,2 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 6,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 73,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,9 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 126,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,6 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 262,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 66,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 68,5 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 21,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 126,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 102,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	19,9	25,2	5,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2,0	2,1	0,1
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	0,4	0,3	-0,1

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,1 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 21,4 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 16,8 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	0,6	0,5	-0,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari boyicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar-mlrd.so'm	5,7	7,0	1,3

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra